

O‘ZBEK VA QOZOQ XALQ MAQOLLARI: XALQ DONISHMANDLIGI VA BADIY IFODA UYG‘UNLIGI

Ernazarova Iroda Shavkat qizi,
SamDu dotsenti

Usmonova Mohinur Hasan qizi,
SamDu 1-bosqich magistratura bosqich talabasi
E-mail: usmanovamohinur043@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va qozoq xalqlari tillaridagi o‘xshashliklar, xalq og‘zaki ijodining boyligi bo‘lgan maqol va matallarning tahlili orqali ko‘rib chiqiladi. Qardosh qozoq xalqining maqol va matallarini qiyosiy jihatdan o‘qib-o‘rganib o‘zbek xalq maqol va matallari bilan o‘xshashlik va farqliliklarini ko‘rib chiqamiz. Tarixiy jihatdan qo‘shni bo‘lgan bu ikki xalqning tili, qarashlari xalq donishmandligi bo‘lgan maqollar orqali yorqin ko‘zga tashlanganligining guvohi bo‘lamiz. Bundan tashqari o‘zbek va qozoq tillarining tarixiga ham bir nazar tashlab, hozirgi kunda bu borada izlanishlar olib borayotgan olimlarning ishlari haqida ham fikrlarimizni ko‘rishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Maqol va matallar, o‘zbek maqollari, qozoq maqollari, o‘xshashlik, farqli jihatlar, o‘rganishlar, qo‘shnichilik

Аннотация. В данной статье рассматриваются сходства между узбекским и казахским языками через анализ пословиц и поговорок, являющихся богатым наследием устного народного творчества. Путём сравнительного изучения казахских пословиц и поговорок как родственного народа выявляются их сходства и различия с узбекскими пословицами и поговорками. Мы становимся свидетелями того, что языковое мировоззрение этих двух исторически соседствующих народов ярко проявляется именно в народной мудрости, отражённой в пословицах. Кроме того, даётся краткий обзор истории узбекского и казахского языков, а также представлены размышления о работах современных учёных, ведущих исследования в данной области.

Ключевые слова: пословицы и поговорки, узбекские пословицы, казахские пословицы, сходства, различия, исследования, соседство.

Abstract. This article examines the similarities between the Uzbek and Kazakh languages through an analysis of proverbs and sayings, which are an important part of oral folk literature. The proverbs and sayings of the fraternal Kazakh people are studied comparatively, and their similarities and differences with Uzbek folk proverbs and sayings are identified. The study demonstrates that the linguistic and worldview affinities of these two historically neighboring peoples are clearly reflected in proverbs, which embody folk wisdom. In addition, a brief overview of the historical development of the Uzbek and Kazakh languages is provided, and opinions are expressed regarding the work of scholars conducting research in this field.

Keywords: proverbs and sayings, Uzbek proverbs, Kazakh proverbs, similarities, differences, studies, neighborhood.

Kirish. Butun turkiy ellarning qolaversa butun jahon xalqlarining durdona merosi bo‘lgan maqollarni o‘rganish qadim davrlarga borib taqaladi. Turli xil bitiktoshlarda, qo‘lyozmalarda va turli allomalarning yozma asarlarida bu xalq og‘zaki ijodining namunalarini uchratamiz. Aslini olganda maqollar xalqlarning tarixiy, manaviy boyligi bo‘lib asrlar davomida xalqning ong ostida saqlanib qolgan. Butun insoniyat Nuh payg‘ambarning avlodlaridan tarqalgan, bu esa odamzodning turmush tarzi, tili va qarashlari birligini bildiradi. Shu jumladan o‘zbek va qozoq xalqlari ham.

O'zbek va qozoq xalqlari bu ikki xalq qadimdan yonma-yon yashab kelgan turkiy xalqlar bo'lib, dini ham bir, tili ham bir bobo tildan tarqalgan. Tillar jihatdan ham madaniy, tarixiy va maishiy, din va e'tiqod tomondan ham ko'plab o'xshashliklarga ega, qolaversa bu xalqlar o'rtasida qarindoshchilik aloqlari ham mavjud. Xalq bir joyda uzoq muddat birga yashasa, o'sha hududning geografik hududi, ijtimoiy sharoiti, tarixi, madaniyati eng avvalo lug'at tarkibiga ta'sirida seziladi. Bu o'xshashliklar ota bobolarimiz bir hududda yashab, umrguzaronlik qilishi oqibatida yuzaga kelgan bundan tashqari XIV-XV asrlarda ikki xalq ham Oltin O'rda davlati tarkibida bo'lgan. Qolaversa ko'pchilik viloyatlarimizda bu tilning faol qo'llanilayotgan so'zlarini uchratamiz, misol uchun Toshkent shevalarining ba'zi dialektlarda qozoq tilining elementlari ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari Qozog'iston bilan chegaradosh areallarda qozoq va o'zbek tillarining birlashgan izoglassalarni uchratamiz. Birga yashash oqibatida so'z va so'z birikmalari ba'zi fonetik jihatlarini hisobga olmaganda ko'p so'zlar orqali bir-biriga o'xshaydi. Bu birlik ayniqsa, maqol va hikmatlarda yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rishingiz mumkin. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikmalar maqol sanaladi[1:113]. Maqollar xalqning donoligi, asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi va tarixiy negizi hisoblanadi. Maqollarlar orqali biz ota bobolarimizning tarixiy tajribasi, an'analari, dunyoqarashi his tuyg'ulari bizgacha va bizdan keyin ham qoladi. Maqollarni o'rganishimiz orqali biz manan boyiymiz, dunyoqarashimiz kengayadi, tilimiz esa shirali bo'ladi. Solishtirib o'rganish orqali esa ikki elning ma'naviyatini va qadriyatlarini yaxshiroq tushunish imkoniga ega bo'lamiz. Demak o'zbek va qozoq maqollarining o'xshashligi quyidagilarda ko'rinadi

Maqol mavzularining umumiyliги ikkala xalqning hikmatli so'zlari va maqollari asosan bir xil mavzular atrofida hosil bo'lgan. Vatan va vatanparvarlik, insonparvarlik, odob axloq va tarbiya, ona yerga muhabbat, turli xil insonning xulq-atvorini ifodalovchi maqollarni ikki xalqda ham uchratamiz.

Shuningdek mehnat qilish, kasb-hunarga ega bo'lish, dabdabali hayotga emas, balki mehnatni qadrlash kabilar ikki xalqning ham qadriyatlar negizida mavjud va qon-qoniga singib ketgan va ikki xalqning ham maqollarida yuzaga chiqadi. Bu qardosh xalqlarda birlik va hamjihatlik, kuch adolatda va birlikda ekanligini xalqning ahamiyatini insonlar bilan birlikda yashash, birlikda hayot kechirish qanchalik ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganligini ikki xalqda ham uchratamiz.

Adabiyotlar tahlili. Qozoq xalq maqollari XIX asrning 2-yarmidan boshlab to'plash va o'rganish ishlari boshlangan. Қазақ мақалдарын алғаш рет Ш. Уәлиханов, Ы.Алтынсарин, Ә. Диваев, М.Ж.Көпеев және орыс ғалымдары А.А. Васильев, Ф.Плотников, П.А.Мелиоранский, В.В. Катаринский, В.Радлов және басқалар жинап, халық ауыз әдебиеті жәдігерлерімен бірге баспаға ұсынды[4:193].

Qozoq maqollarini birinchilardan bo'lib Sh.Uilxonov, I.Altinsarin, E.Divayev, M.J.Kopeev, qolaversa rus olimlari A.A.Vasiliev, F.Plotnikov, P.A.Meloraniskiy, V.V.Katapinskiy, V.Radilov yana boshqa olimlar to'plab, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga nashr ettirishgan. Bundan tashqari yana ko'plab olimlar bu borada salmoqli ishlar qilishgan. М. Әуезов, М. Ғабдуллин, Б. Шалабаев, Б. Адамбаев сияқты белгілі фольклортанушы ғалымдар мақал-мәтелдердің жанрлық ерекшеліктерін зерттеп, ғылыми тұжырымдар жасады [2:2]. М. Avezov, M. G'abdullin, B.Shalabaev, B.Adambaev kabi folklorshunos olimlar maqol va matallarni farqli tomonlarini o'rganib, o'z ilmiy xulosalarini yozishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o'zbek va qozoq xalq maqollari qiyosiy-tipologik hamda lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganildi. Maqollar tavsifiy, qiyosiy va semantik tahlil metodlari yordamida tahlil qilinib, ularning mazmuniy o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, maqollarda aks etgan milliy qadriyatlar, dunyoqarash va badiiy ifoda vositalari qiyosiy jihatdan baholandi.

Tahlil va natijalar. Qozoq xalq maqollarini o'rgangan olim Boltaboy Adambaev maqollar haqida o'z fikrlarini bayon etar ekan, xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi maqollar ham avval boshda bir kishi tomonidan yaratilgan keyinchalik esa og'izdan-og'izga o'tib kelishi oqibatida yaratuvchisi noma'lum bo'lib qolganligini aytib o'tadi.

Xalq og'zaki ijodining janrlaridan bo'lgan maqol va matallar o'zbek olimlarining ham e'tiboridan chetda qolmagan. B.Rahmonov, Sh.Jo'rayev, H.Zarifov, B.Karimov, Sh.Rizayev, O'.Xolmatov, M.Afzalov, E.Siddiqov, B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, A.Musaqulov, R.Zarifov, B.Sarimsoqov, M.Madrahimova kabi olimlar maqollarni to'plab, nashr ettirish ishlari bilan shug'ullanganlar. Qolaversa, o'zbek xalqining maqollari turli xil asarlarga kiritilgan. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiiy o'zining "Zarbulmasal" asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq [5:4].

Кісі елінде сұлтан болғанша,

Өз елінде ұлтан бол[3:11].

Kishi yurtida shoh bo'lguncha,

O'z yurtingda (ulton) gado bo'l[5:13].

Bu maqollar o'zbek va qozoq xalq maqollari bo'lib aynan o'xshash variantdir. O'zbek tilida "el" so'zi ham, "yurt" so'zi ham birdik qo'llaniladi. Ammo "yurt" so'zi ma'lum bir o'troq hayot kechiruvchilar uchun mos. "El" so'zi esa insonlarning jamoasi ma'nosini anglatadi. Fikrimizcha o'zbek xalqi o'troq hayot tarzida bo'lganligi uchun "yurt" so'zini, qozoq xalqi esa jamoaviy ko'chmanchiligi uchun "el" so'zini maqolga singdirgan.

Туған жердің жуасы да тәтті[3:11].

Tovushqonga tug'ilgan tepasi aziz[5:14].

Bu maqol ham ma'naviy jihatdan bir-biriga o'xshash maqollar bo'lib, vatan mavzusidadir. "Жуя" so'zi "yovvoyi piyoz" ma'nosini anglatadi. Demak, tug'ilgan yeringning piyozi ham shirin. Piyoz asli achchiq bo'lib, ammo o'zga yerda yashagandan ko'ra, o'z yeringning piyozi shirin tuyiladi, deyilmoqda. O'zbek xalq maqolida esa "tovushqon" (yovvoyi quyon)ga tepa joy ya'ni sovvuq va o't-o'lanlar kichik bo'lyi bo'lib, kam o'sadigan joyi aziz.

Көп ауызы дуалы.[3:10]

Ko'p duosi ko'l bo'lur[5:20].

Bu ikki maqol ham bitta ma'no anglatadi, ya'ni ko'pchilikdan duo olsa amalga oshmay qolmas.

Көпке ұнамаған көбеймейді.

Көп қарғысына ұшыраған көгермейді[3:10].

Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar.

Ko'pni demay kul bo'ldim,

G'am-g'ussaga mo'l bo'ldim[5:21].

Bu maqollar ham bir-birini to'ldiradi va o'xshash maqollar hisoblanadi. Qozoq tilidagi "ұнамаған" so'zi o'zbek tilidagi xoxlamagan, yoqlamagan ma'nolarini bildiradi va ko'pchilikni yoqlamagan inson ko'paymasligi "biri ikki bo'lmasligi" haqidadir.

Адамның күні адаммен.

Odamning kuni odam bilan.

Bu maqol ham aynan bir xil tushunchani anglatadi. O'zbek tilida bilan yordamchi so'zi orqali bog'lanayotgan birliklar qozoq tilida "мен" qo'shimchasi bilan bog'langanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni bu qo'shimcha "bilan" yuklamasining aynidir.

Bundan tashqari yana ko'plab maqol va matallar borki ularning zamiri aynan bir xildir.

Адам бір-біріне қонақ.

Адамның сырты алдамшы.

Адамға адам жат емес.

Адам болып туған соң,

Адам болып өлу ләзім.

Адам аласы ішінде,

Мал аласы сыртында.

Атаңның баласы болма,

Адамның баласы бол.

Туған жердің жуасы да тәтті.

Издеген мұратына жетеді.

Ойыннан от шығар.

Өлімнен ұят күшті.

Андамай сөйлеген
Ауырмай өлер.
Су ішкен құдығыңа түкірме!
Балапан ұяда не көрсе,
Ұшқанда соны іледі.
Ағайын ала болса,
Ауыздағысынан айырылар.
Қарға баласын «аппағым» дейді,
Кірпі баласын «жұмсағым» дейді.
Енесі тепкен құлынның
еті ауырмас.
Ата-ананың қадірін
Балалы болғанда білерсің.
Ағайынның қадірін
Жалалы болғанда білерсің.
Дүниеде бал тәтті,
Бала балдан да тәтті.
Қол – таразы,
Көңіл – қазы
Адам елінде,
Қоға көлінде көгерер.
Адам аласы ішінде,
Мал аласы сыртында[3].

Bu qozoq xalq maqol matallarining ham o'zbek tilida muqobili borligini bilamiz.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek va qozoq maqollarining o'xshashligi ularning qardosh tillar va qardosh xalqlar ekanligining yorqin isbotidir. Ularning o'rtasidagi kichik farqlar esa har bir xalqning o'ziga xos tarixiy tajribasi va madaniy rang-barangligini aks ettiradi. O'zbek va qozoq xalq maqollari ikki qardosh xalqning tarixiy ildizlari, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini mushtarak ekanligini yaqqol namoyon etadi. Har ikkala tilda qo'llaniladigan maqol va matallar ma'naviy jihatidan o'xshash bo'lib, asosan vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insoniylik, odob-axloq kabi ikki xalq uchun ham umumiy bo'lgan mavzularni yoritadi. Bu o'xshashliklar xalqlarning uzoq tarix davomida yonmayon yashab, bir-biriga madaniy va til jihatidan ta'sir ko'rsatganligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, ayrim farqlar ham mavjud bo'lib, ular har bir xalqning o'ziga xos turmush tarzi, tarixiy tajribasi va mentalitetini aks ettiradi. Masalan, ko'chmanchi bo'lgan qozoqlar va o'troq turmush tarzidagi o'zbeklar bir-biri bilan tajriba almashgan. Bu xalqlar bir-biriga entrolengvistik jihatdan ham, introlengvistik tomondan ham katta ta'sir qilgan, desak mubolog'a bo'lmaydi. O'zbek va qozoq maqol va matallarini qiyosiy o'rganishi birgina tilshunoslikda emas, balki madaniyatlararo munosabatlarni ham kengroq anglash

imkonini beradi. Bu uyg'unlik esa ikki qardosh xalqning do'stlik va birdamlik aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi. Qolaversa, umumiy turkiy til boyliklarini asrab-avaylash orqali esa xalq og'zaki ijodimizni yanada anglab, boshqa xalqlarga ham yetkazish imkoni tug'iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2016.
2. Сәрсек Н. Ә. Қазақ мақал-мәтелдерінің ерекшеліктері және олардың өзге түркі тілдеріндегі мақалдармен ұқсастығы // Keruen scientific journal. – 2021. – Vol. 73, № 4.
3. Қазақ мақал-мәтелдері. – Алматы: Балауса, 2013.
4. Махат Д. А. Мақал-мәтелдер – қазақ тарихының дерек көзі // Journal of History. – 2019. – № 2 (93). – Б. 193. – ISSN 1563-0269.
5. O'zbek xalq maqollari / tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; mas'ul muharrir Sh. Turdimov. – Toshkent: Sharq, 2019. – 512 b

